

O'zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazm

2019-yil 17-may kuni Xorazm Ma'mun akademiyasida "Xorazm o'qishlari" turkumida "O'zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazm" mavzusidagi II Respublika ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.



Konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Urganch davlat universiteti vakillari, yetakchi soha mutaxassislari ishtirok etdi. Konferensiya ishida tarix, tarixshunoslik va manbashunoslik, arxeologiya, etnologiya va san'atshunoslik sohasining yutuq va muammolari muhokama qilindi.